

**NODAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOB
VA MOLİYAVIY HISOBOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
(O'ZBEKISTON SHAROITIDA)**

*Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat
texnikumi bosh o'qituvchisi*

O'rmonov Xasanboy

*Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat
texnikumi 9-25 guruh o'quvchisi*

Ubaydullaeva Odinaxon

*Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat
texnikumi 9-25 guruh o'quvchisi*

Omonov Abrorjon

Annotatsiya; Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida nodavlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Nodavlat tibbiyot muassasalarining huquqiy asoslari, ularni tashkil etish bosqichlari hamda moliyaviy faoliyatini hisobga olish tartibi tahlil qilingan. Shuningdek, daromad va xarajatlarni hisobga olish, mulkiy hisob, moliyaviy hisobotning ahamiyati va uning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat tibbiyot muassasalari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, tibbiy xizmatlar, moliyaviy nazorat, daromad va xarajatlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности организации бухгалтерского учета и финансовой отчетности в негосударственных медицинских учреждениях в условиях Республики Узбекистан. Проанализированы правовые основы деятельности негосударственных медицинских учреждений, этапы их создания, а также порядок учета финансово-хозяйственной деятельности. Особое внимание уделено учету доходов и расходов, имущественному учету и значению финансовой отчетности в системе управления.

Ключевые слова: негосударственные медицинские учреждения, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, медицинские услуги, финансовый контроль, доходы и расходы.

Annotation; This article examines the specific features of accounting and financial reporting in non-state medical institutions under the conditions of the Republic of Uzbekistan. The legal framework, stages of establishment, and procedures for accounting financial activities of non-state medical institutions are analyzed.

Special attention is given to income and expense accounting, asset management, and the role of financial reporting in managerial decision-making

Keywords: non-state medical institutions, accounting, financial reporting, medical services, financial control, income and expenses.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida nodavlat tibbiyot muassasalari (NMTM) so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ular davlat sog'liqni saqlash muassasalari bilan raqobatlashib, sifatli tibbiy xizmatlarni aholiga yetkazishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, NMTMlarning moliyaviy faoliyati va buxgalteriya hisobi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni tartibga solish va nazorat qilishning ilmiy asoslangan mexanizmlari zarur.

Nodavlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi faqat moliyaviy hisob-kitobni yuritish vositasi emas, balki boshqaruv, strategik rejalashtirish va moliyaviy nazoratning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ularning faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy hisobotlarni to'g'ri shakllantirish O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Nodavlat tibbiyot muassasalarining tashkil etilishi va huquqiy asoslari

Nodavlat tibbiyot muassasalari (NDTM) – bu shaxsiy, xususiy yoki jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan va davlat tomonidan to'liq moliyalashtirilmaydigan tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari hisoblanadi.

Ular quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- Shaxsiy klinikalar, tibbiyot markazlari
- Laboratoriyalar
- Stomatologiya va diagnostika markazlari
- Reabilitatsiya va sanatoriy xizmatlari
- Konsultativ xizmat ko'rsatadigan markazlar

Nodavlat tibbiyot muassasalarini tashkil etishning asosiy huquqiy asoslari
O'zbekistonda NDTM faoliyati bir necha qonun va normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi:

1. **O'zbekiston Respublikasi “Tibbiyot to'g'risida”gi Qonuni** – tibbiyot faoliyati, nodavlat tibbiyot muassasalarini ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash tartibini belgilaydi.
2. **“Nodavlat tibbiyot muassasalarini tashkil etish va faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida”gi nizom** – NDTMning ochilishi va faoliyatini rasmiylashtirish qoidalari.
3. **Fuqarolik kodeksi** – xususiy mulk va korxona tashkil etish huquqini kafolatlaydi.

4. **Sog'liqni saqlash vazirligining normativ hujjatlari** – sanitariya-gigiyena talablarini va kadrlar malakasini belgilaydi. Tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat

Tashkil etuvchi hujjatlarni tayyorlash:

- Ta'sischi to'g'risidagi ma'lumotlar
- NDTMning nomi, manzili, faoliyat yo'nalishi
- Moliyaviy va moddiy resurslar manbalari

Davlat ro'yxatidan o'tkazish:

- Nodavlat tibbiyot muassasasi davlat ro'yxatiga kiritiladi
- Ro'yxatga olish organi: hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshiriladi

Litsenziya olish:

- Tibbiyot faoliyatining har bir turi uchun alohida litsenziya talab qilinadi
- Litsenziya Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan beriladi

Kadrlar va jihozlarni tayyorlash:

- Malakali tibbiyot xodimlari (shifokor, hamshira, laboratoriya xodimi)
- Tibbiy asbob-uskunalar va dori vositalari

Faoliyatni boshlash:

- Sanitariya va gigiyena talablariga mos keladigan sharoitlar yaratish
- Statistik hisob va moliyaviy hisobot yuritish

Buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari NMTMlarda buxgalteriya hisobi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

-Mulkiy hisob: Operativ boshqaruv huquqi asosida birlashtirilgan, tadbirkorlik faoliyati hisobidan sotib olingan va beg'araz olingan mulkni hisobga olish.

-Daromadlar va xarajatlar hisoboti: Turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha alohida hisob yuritish. Masalan, konsultatsiya, diagnostika, tibbiy xizmatlar va dori-darmon savdosi.

Moliyaviy hisobot NMTMning faoliyatini baholash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, u investorlar, sug'urta kompaniyalari va nazorat organlariga muassasaning moliyaviy holatini tushuntirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Nodavlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi takliflar ishlab chiqilishi mumkin:

1. Buxgalteriya hisobini NMTMning faoliyatiga moslashtirilgan standartlar asosida yuritish.
2. Moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va xodimlarning malakasini oshirish.

3. Turli yo'nalishlar bo'yicha daromad va xarajatlarni alohida hisobga olish tizimini joriy etish.
4. Qo'shimcha ma'lumotlar va hisobot shakllarini standartlashtirish.

Ushbu choralar NMTMlarning moliyaviy barqarorligini oshirish, faoliyat samaradorligini yaxshilash va sog'liqni saqlash tizimida ularning o'rnini mustahkamlash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Tibbiyot faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. Назаров Б.М., Бухгалтерский учет в негосударственных медицинских учреждениях, Москва, 2018.
4. Саидов Ш., Тадбиркорлик faoliyatida moliyaviy nazorat, Toshkent, 2021.
5. Karimov A., O'zbekiston sharoitida nodavlat tibbiyot muassasalari faoliyati, Toshkent, 2022.